

“QARSAK” KO’RMAGAN YIGIT

Talabalik hayotning navqiron fasli. U dengiz to’lqinlarida sayohat qilayotgan “Kusto”danda toshqinli, “Titanik”danda hayratlanarli, quyoshdanda taftli qudratga ega. Bu kabi fazilatlarga ega bo’lsa hamki, uning uchun eng katta jazo – uzundan-uzoq cho’ziladigan turli-tuman konferensiyalarga berilgan yo’llanmadir. Biz ham arzimagan gunohimiz uchun dekanat tarafdin darsdan so’ng bo’ladigan tadbirga yuboriladigan bo’ldik. Ana xalos! Qancha rejalarimiz bor edi-ya!

Suyagini yutolmay, g’ajib yurgan it kabi sekin yo’lga tushdik. Tadbir ham aytilgan fursatdan yarim soat kech boshlandi. Zal esa deyarli barcha universitetlardan kelgan talabalar bilan gavjum. Qo’limizda turgan anjuman dasturiga ko’z tashladim. Naqt 17 ta talabalarning chiqishi rejalashtirilgan ekan. Dasturning avvalidagi 2-3ta ma’ruzachining namoyishlari diqqat bilan tinglandi. Keyin esa qafasga tushgan to’tidek bir tarafga qiyshaya boshladik. Zaldagi talabalar yoppasiga o’z yumushlariga kirishib ketishdi.

Vaqt o’tgan sari hammaning toqati toq bo’la boshladi. Har bir ma’ruzachina qarsaklar sadosi ila kuzatib qo’ya boshladik.

Navbat bir talaba yigitga keldi. U o’zi bilan olib kelgan dasturlarini taqdim eta boshladi. Uning ishi ham avvalgi talabalarnikidan deyarli farq qilmas edi... Ammo belgilangan 10 minut tugashiiga qaramay, u o’z so’zini yakunlay demasdi.

Biz-ku mayli, endi dasturni olib borayotgan boshlovchilar ham taraddudlanib qolishdi. Shu payt kutilmaganda zalda o’tirganlardan biri qarsak chalib qoldi. Keyin ular soni ko’paya boshladi. Nihoyat butun zal jo’r bo’ldi. Bu qarsak yoshgina talaba yigitga tarsakdek bo’lib tuyuldi shekilli, hamma jim bo’lgach, - raxmat-, deya yana gapiga davom eta boshladi. Endi u alamini olayotgan boladek jaxl bilan gapirar edi. Tadbir tashkilotchilari rosmanasiga sarosimaga tusha boshlashdi. Kimdir boshlovchi qizga imo qildi shekilli u davraga chiqib kelib, reglamentga amal qilinishi kerakligini eslatib o’tdi. Qayoqda! Shunga qaramasdan talabamiz to’xtay demasdi. Zaldagilar esa uni yana bir bor qarsak bilan siylashdi. Baribir bo’lmadi. Qarsaklardan “zavqlangan” yigit hamon so’zlamogda. Endi uning so’zini hech kim eshitmas, shunchaki qiziqib termulib turishar edi. Nihoyat qat’iy topshiriq olgan boshlovchi yigit unga minnaddorchilik bildirib, keying ishtirokchini sahnaga taklif etdi. Ishtirokchimiz esa yana 2-3 og’iz so’z aytib, davrani tark etdi. Bu safar tomoshabinlar chinakamiga qarsak bilan kuzatib qo’yishdi.

Biz esa qaytib hech qachon xato qilmaslikka va bunday yo'llanmalarga ega chiqmaslikka kelishib oldik.

Maxsuma OQQO'ZIYEVA